XOTIRA MATNLARIDA BIRINCHI SHAXSGA ASOSLANGAN NARRATIV KONSTRUKSIYALAR (AUTONARRATIV SINTAKSIS)

Kholmatov Mardonjon Sherali o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Maqolada birinchi shaxsga asoslangan xotira matnlarining (memuar, kundalik, avtobiografik bayonot, raqamli esdaliklar) sintaktik tashkiloti autonarrativ sintaksis tushunchasi doirasida o‘rganiladi. Tadqiqotning maqsadi — bunday matnlardagi asosiy narrativ sintaktik konstruksiyalarni aniqlash, tasniflash va ularning bayon jarayonidagi vazifasini tavsiflash. Nazariy asos sifatida Labov va Waletzkiyning og‘zaki narrativ strukturasi nazariyasi, Janettning bayon ovozi va fokalizatsiya kontseptsiyasi, Xopperning aspekt va birinchi reja nazariyasi hamda Fillmor va Byulerning deyktik markaz haqidagi qarashlari qabul qilingan. Tahlil o‘zbek tilidagi taxminan 120 ta matn parchasini qamrab olgan korpus asosida funksional-tahliliy yondashuvda olib borildi. Natijada beshta asosiy konstruksiya guruhi aniqlandi. Tadqiqot zamon shakllarining almashinuvi bayon qilayotgan va bayon qilinayotgan “men” orasidagi sintaktik chegarani belgilovchi tizimli mexanizm ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *autonarrativ sintaksis, birinchi shaxs bayoni, xotira matni, narrativ konstruksiya, deyktik markaz, fokalizatsiya, zamon shakllari, birinchi reja va fon.*

KIRISH

Inson o‘z o‘tmishini so‘z bilan qayta tiklaganda — memuar, kundalik yoki og‘zaki esdalik shaklida — til vositalaridan o‘ziga xos tarzda foydalanadi. Bunday matnlar uzoq vaqt asosan adabiyotshunoslik va psixologiya obyekti bo‘lib kelgan, biroq ularning sintaktik tashkiloti alohida lisoniy hodisa sifatida nisbatan kam o‘rganilgan. Labov va Waletzki shaxsiy tajriba og‘zaki bayonini formal tahlil qilish mumkinligini ko‘rsatib, narrativni o‘tgan voqealarni qayd etishning maxsus lisoniy usuli sifatida ta‘riflagan edi [1]. Ushbu maqolada biz aynan shu yo‘nalishni davom ettirib, birinchi shaxs xotira matnlaridagi sintaktik qonuniyatlar majmuasini autonarrativ sintaksis deb atashni taklif qilamiz.

Birinchi shaxs bayonidagi asosiy nazariy muammo grammatik “men”ning ikkilamchiligi bilan bog‘liq. Janett bayon ovozi (kim gapiradi) va fokalizatsiya (kim ko‘radi) tushunchalarini qat‘iy ajratgan holda, avtobiografik bayonda bayon qilayotgan “men” (narrating I) bilan tajribani boshdan kechirgan “men” (experiencing I) orasidagi masofani alohida ta‘kidlaydi [2, p. 186]. Bayon qilayotgan “men” voqealar oqibatini biladi, tajriba payti “men” esa undan bexabar; mana shu bilim asimmetriyasi butun matnning sintaktik tashkilotiga ta‘sir qiladi.

Mavzuning dolzarbligi uch omil bilan belgilanadi. Birinchidan, zamonaviy diskurs tahlilida matn statik tuzilma emas, balki so‘lovchining kommunikativ faoliyati natijasi sifatida qaraladi, shu bois sintaktik tanlovlar bayon strategiyasi bilan bog‘lanadi. Ikkinchidan, o‘zbek tilshunosligida xotira janrlari matni alohida sintaktik obyekt sifatida deyarli o‘rganilmagan. Uchinchidan, raqamli muhitda birinchi shaxs janrlarining (blog, ijtimoiy tarmoq postlari) tarqalishi birinchi shaxs sintaksisini yangi sharoitda qayta ko‘rishni taqozo etadi [3; 4].

Tadqiqotning maqsadi — birinchi shaxs xotira matnlarida uchraydigan asosiy narrativ sintaktik konstruksiyalarni aniqlash, tasniflash va ularning bayon jarayonidagi vazifasini tavsiflashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: (1) autonarrativ sintaksis tushunchasini mavjud narratologik va pragmatik nazariyalar asosida asoslash; (2) birinchi shaxs xotira matnining sintaktik o‘ziga xosligini belgilovchi mezonlarni ishlab chiqish; (3) konstruksiyalarni tipologik guruhlarga ajratish; (4) har bir guruhning bayondagi kommunikativ vazifasini ko‘rsatish.

Tadqiqotning ish gipotezasi quyidagicha: birinchi shaxs xotira matnida sintaktik tanlovlar, ayniqsa zamon-aspekt shakllari, tasodifiy taqsimlanmaydi, balki bayon qilayotgan va bayon qilinayotgan “men” orasidagi munosabatni izchil aks ettiradi; shu sababli konstruksiyalarni cheklangan sonli funksional guruhlarga ajratish mumkin. Maqola IMRAD tuzilishida qurilgan.

NAZARIY ASOSLAR VA ADABIYOTLAR SHARHI

Birinchi shaxs bayoni masalasi bir necha mustaqil an‘ana doirasida o‘rganilgan. Strukturalistik narratologiyada Janett bayonni vaqt (order, duration, frequency), mod (mood) va ovoz (voice) kategoriyalari orqali tahlil qilishni taklif etgan. Uning asosiy hissasi — “kim ko‘radi?” va “kim gapiradi?” savollarini ajratish, ya‘ni fokalizatsiyani ovozdan farqlash bo‘ldi [2, p. 186]. Avtobiografik matnda bu ajratim bayon qilayotgan “men”ning hozirgi bilimi bilan tajriba payti “men”ning cheklangan idroki orasidagi farqqa aylanadi.

Shaxsiy tajriba og‘zaki bayoni masalasida Labov va Waletzkiyning ishi tayanch hisoblanadi. Ular narrativni o‘zaro vaqt ketma-ketligida joylashgan bandlardan (clauses) iborat tuzilma sifatida ko‘rib, uning tarkibida abstrakt, yo‘nalish (orientation), murakkablashish (complicating action), baholash (evaluation), yechim (resolution) va koda bosqichlarini ajratgan [1; 5]. Ayniqsa baholash komponenti muhim: so‘lovchi voqeani shunchaki bayon qilmasdan, uning ahamiyatini muntazam belgilab boradi, va bu vazifa ko‘pincha aniq sintaktik vositalar bilan bajariladi [5, pp. 354–396].

Diskurs sintaksisida Xopperning aspekt va birinchi reja nazariyasi alohida o‘rin tutadi. Xopper narrativda zamon shakllarining vazifasi ko‘pincha sof vaqt ko‘rsatishdan iborat bo‘lmasligini ta‘kidlab, tugallangan (perfektiv) aspekt asosiy voqea chizig‘ini — birinchi rejani (foreground), davomli (imperfektiv) aspekt esa fon (background) materialini ifodalashini ko‘rsatgan [6]. Bu ajratim keyinchalik figura va fon (figure/ground) tushunchalari bilan bog‘langan va o‘tish, voiz, so‘z tartibi kabi qo‘shimcha sintaktik belgilar bilan kengaytirilgan [7].

Pragmatik nuqtai nazardan birinchi shaxs bayoni deyksis nazariyasi orqali yoritiladi. Byuler nutqiy maydon so‘lovchining “men–shu yer–hozir” koordinatalaridan tashkil topgan origo atrofida uyushishini ko‘rsatgan [8]. Fillmor bu g‘oyani rivojlantirib, deyktik markaz boshqa subyektga yoki bayondagi qahramonga ko‘chirilishi mumkinligini ta‘riflagan [9]. Levinson esa deyktik markazning bayonda transpozitsiyalanishi, ya‘ni so‘lovchining o‘z koordinatalaridan o‘tmish qahramoni koordinatalariga ko‘chishini umumlashtirgan [10, ch. 2]. Xotira matnida aynan shu ko‘chish va qaytish doimiy ravishda kechadi.

Og‘zaki va kundalik bayonni o‘rganishda Oks va Kapps yashash bayoni (living narrative) tushunchasini kiritib, bayon nafaqat tugallangan adabiy mahsulot, balki kundalik muloqotda kechadigan jarayon ekanligini ta‘kidlagan [11]. Fludernik esa “tabiiy narratologiya” doirasida bayonning markazida syujet emas, balki tajribaviylik (experientiality), ya‘ni inson ongidan o‘tgan tajriba turishini asoslagan [12]. Bu yondashuvlar birinchi shaxs xotira matnida ichki kechinma va baho qatlamining nega bunchalik muhim ekanligini tushuntiradi.

O‘zbek tilshunosligida gap bo‘laklari, qo‘shma gap turlari va matn sintaksisi puxta o‘rganilgan, badiiy matnda muallif obrazi va bayon usullari bo‘yicha ham salmoqli ishlar mavjud. Biroq birinchi shaxs xotira matni alohida sintaktik tip sifatida ajratilmagan; bayon qilayotgan va bayon qilinayotgan “men” orasidagi sintaktik munosabat tizimli tahlil obyekti bo‘lmagan. Shunday qilib, adabiyotda aniq bo‘shliq ko‘rinadi: narratologiya bayon ovozini, diskurs sintaksisi birinchi reja–fon ajratimini, pragmatika deyktik markazni alohida o‘rgansa-da, ularni o‘zbek tilidagi xotira matni materialida birlashtirgan tadqiqot yetishmaydi. Mazkur maqola ana shu bo‘shliqni qisman to‘ldirishga qaratilgan.

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqot sifat (kvalitativ) tavsiflovchi-tahliliy dizaynda olib borildi. Asosiy yondashuv — sintaktik konstruksiyani uning narrativ vazifasi bilan bog‘lab o‘rganadigan funksional-tahliliy yo‘nalish bo‘lib, u Labov va Waletzkiyning bandga asoslangan tahlil usulini [1] Xopperning birinchi reja–fon ajratimi [6] bilan birlashtiradi. Markaziy tahlil birligi sifatida narrativ band, ya‘ni o‘z predikatiga ega va bayon zanjirida muayyan o‘rin tutadigan minimal sintaktik birlik olindi.

Tadqiqot materialini birinchi shaxsda yozilgan yoki aytilgan xotira matnlari tashkil etdi. Tahlilga uch turdagi manba jalb qilindi: nashr etilgan avtobiografik va memuar matnlardan tanlangan parchalar; shaxsiy kundalik va xat janridagi matnlar; raqamli muhitdagi birinchi shaxs xotira yozuvlari (blog yozuvlari va esdalik xarakteridagi postlar). Manbalar birinchi shaxs bayonining mavjudligi, o‘tmish voqeasiga yo‘naltirilganligi va yaxlit narrativ tuzilishga egaligi mezonlari asosida saralandi.

Tahlil korpusi taxminan 120 ta matn parchasidan iborat bo‘lib, shaxsni identifikatsiya qiluvchi ma‘lumotlar tahlildan chiqarildi va matnlar shartli kodlangan holda saqlandi. Tadqiqot quyidagi bosqichlarda olib borildi. Birinchi bosqichda matnlar narrativ bandlarga ajratildi ([1] metodikasiga muvofiq). Ikkinchi bosqichda har bir bandda predikatning zamon va aspekt shakli, shaxs ko‘rsatkichi, gapning tuzilishi (sodda yoki qo‘shma), modal va baho vositalarining mavjudligi qayd etildi. Uchinchi bosqichda bandlar bayondagi vazifasiga ko‘ra guruhlandi. To‘rtinchi bosqichda guruhlar orasidagi sintaktik farqlar umumlashtirildi va tipologiya shakllantirildi.

Tahlilning asosiy mezonlari sifatida quyidagilar qabul qilindi: predikatning zamon-aspekt xususiyati ([6] asosida); bayon qilayotgan va bayon qilinayotgan “men” orasidagi masofa ([2] asosida); deyktik markazning joylashuvi va transpozitsiyasi ([9; 10] asosida); gap bo‘laklarining aktual bo‘linishi (tema–rema); baho va modallik vositalarining sintaktik joylashuvi ([5] asosida). Tasnifning ishonchliligini oshirish

maqsadida bandlar ikki bosqichda — dastlabki belgilash va qayta tekshirish tartibida kodlandi.

NATIJALAR

Tahlil natijasida birinchi shaxs xotira matnlarida takrorlanuvchi beshta asosiy narrativ sintaktik konstruksiya guruhi aniqlandi.

Birinchi guruh — voqea zanjiri konstruksiyalari. Bular o‘tgan zamon tugallangan shakldagi predikatga ega, ketma-ket joylashgan sodda yoki bog‘lovchisiz qo‘shma gaplardan iborat bo‘lib, bayonning asosiy syujet chizig‘ini olib boradi. Bu Xopper ta‘riflagan birinchi reja (foreground) qatlamiga to‘g‘ri keladi: perfektiv aspekt voqeani oldinga suradi [6]. Tema–rema tuzilishi barqaror: “men” odatda tema, harakat esa rema sifatida keladi. Tipik misol: “Eshikni ochdim, ichkariga kirdim va stolga o‘tirdim” — bu yerda uchta perfektiv predikat vaqt o‘qi bo‘ylab izchil joylashib, harakat zanjirini hosil qiladi. Bunday bandlar ko‘pincha “so‘ngra”, “shundan keyin” kabi vaqt bog‘lovchilari bilan zanjirlanadi va o‘quvchi e‘tiborini fonga emas, harakatning o‘ziga qaratadi.

Ikkinchi guruh — fon konstruksiyalari. Bularda o‘tgan zamon davom yoki holat shakllari, sifatdosh va ravishdosh oborotlar, hol ergash gaplari ustunlik qiladi. Ular voqea sodir bo‘lgan sharoit va vaziyatni tasvirlaydi va Xopperning fon (background) qatlamiga mos keladi [6; 7]. Bu konstruksiyalar Labov tilida yo‘nalish (orientation) bosqichi vazifasini ham bajaradi [5]. Misol: “Kuz edi, havo salqin tortgan, hovlida yaproqlar to‘kilib yotardi” — bu yerda predikatlar harakatni emas, holatni ifodalaydi va vaqt o‘qini to‘xtatib, sahna tasvirini beradi. Sintaktik jihatdan fon bandlari voqea zanjiriga nisbatan uzunroq va murakkablashgan tuzilishga ega bo‘ladi.

Uchinchi guruh — baho va sharh konstruksiyalari. Bu yerda bayon qilayotgan “men” hozirgi nuqtadan turib o‘tmish voqeasini baholaydi. Sintaktik belgilari: hozirgi zamon shakllari, modal so‘zlar, kirish so‘z va kirish gaplar, qiyoslash konstruksiyalari. Bu Labovning baholash (evaluation) komponentiga [5, pp. 354–396] va Janettning bayon qilayotgan “men” ovoziga [2] to‘g‘ri keladi. Misol: “O‘shanda buni tushunmaganman, endi anglaymanki, bu hayotimdagi eng muhim qaror edi” — bu yerda “endi anglaymanki” kirish konstruksiyasi va hozirgi zamon predikati bayon qilayotgan “men”ning hozirgi bilimini ochiq ifodalaydi. Aynan shu guruhda ikki “men” orasidagi vaqt masofasi eng aniq sezildi: predikat zamoni o‘tgan zamondan hozirgi zamonga ko‘chadi.

To‘rtinchi guruh — ichki nutq va kechinma konstruksiyalari. Bular o‘tmishdagi “men”ning fikr va his-tuyg‘ularini ifodalaydi: ko‘chirma va o‘zlashtirma gap, idrok va his fe‘llari bilan kelgan to‘ldiruvchi ergash gaplar, ritorik so‘roq gaplar. Misol: “‘Nahotki shu bilan tamom bo‘lsa?‘ — deb o‘yladim o‘sha tobda” — ko‘chirma gap tajriba payti “men”ning ongini bevosita taqdim etadi. Ular bayonga ichki fokalizatsiya qo‘shadi [2] va Fludernik ta‘kidlagan tajribaviylikni [12] yuzaga chiqaradi. Ko‘chirma gap tajribani yaqindan, o‘zlashtirma gap esa masofadan ko‘rsatib, ikki xil yaqinlik darajasini hosil qiladi.

Beshinchi guruh — murojaat va metanarrativ konstruksiyalar. Bularda bayon qilayotgan “men” bayon jarayonining o‘ziga ishora qiladi: “eslayman”, “yodimda” tipidagi predikatlar, o‘quvchiga murojaat, bayon tartibiga oid izohlar. Misol: “Hozir

eslayman, o‘sha kunni hech unutmayman” — “eslayman” predikati bayonning hozirgi paytdagi aktini ochiq nomlaydi. Ular deyktik markazning hozirgi paytga qaytishini ko‘rsatadi [9] va Oks va Kapps tavsiflagan bayonning muloqotli tabiatini namoyon etadi [11].

Quyidagi jadvalda besh guruhning sintaktik belgilari, vazifasi va nazariy manbasi umumlashtirilgan.

Guruh	Asosiy sintaktik belgilari	Vazifasi	Nazariy manba
Voqea zanjiri	O‘tgan zamon perfektiv; ketma-ket sodda gaplar	Syujetni surish (birinchi reja)	Hopper, 1979
Fon	Davom/holat shakllari; ravishdosh oborotlar	Sharoit tasviri (fon)	Hopper, 1979; Labov, 1972
Baho va sharh	Hozirgi zamon; modal va kirish so‘zlar	O‘tmishni baholash	Labov, 1972; Genette, 1980
Ichki nutq	Ko‘chirma gap; his fe‘llari; ritorik so‘roq	Ichki fokalizatsiya	Genette, 1980; Fludernik, 1996
Metanarrativ	Xotira fe‘llari; o‘quvchiga murojaat	Deyktik markazni qaytarish	Fillmore, 1997; Ochs & Capps, 2001

Miqdoriy kuzatuv shuni ko‘rsatdiki, voqea zanjiri va fon konstruksiyalari korpusda eng ko‘p uchraydigan guruhlar bo‘lib, bu Xopperning narrativ matnda birinchi reja va fon asosiy qatlamlar ekanligi haqidagi qaydiga mos keladi [6]. Baho va metanarrativ konstruksiyalar son jihatdan kamroq bo‘lsa-da, ular matnning boshlanish va yakuniy qismlarida jamlanib, Labov ko‘rsatgan baholash funksiyasining sintaktik markazini hosil qildi [5].

Eng muhim kuzatuv — zamon shakllarining almashinuvi konstruksiya guruhi bilan bog‘liq tarzda yuz beradi. Voqea va fon qatlamida o‘tgan zamon barqaror saqlanar ekan, baho va metanarrativ qatlamda hozirgi zamonga ko‘chish kuzatildi. Bu zamonlar almashinuvi bayon qilayotgan va bayon qilinayotgan “men” orasidagi sintaktik chegarani belgilovchi asosiy vosita bo‘lib chiqdi, ya‘ni Janett mavhum ta‘riflagan ovoz almashinuvi [2] grammatik shaklda kuzatildi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar autonarrativ sintaksis tushunchasining asosli ekanligini tasdiqlaydi. Aniqlangan besh guruh tasodifiy sintaktik xilma-xillik emas, balki bayon qilayotgan va bayon qilinayotgan “men” orasidagi munosabatning izchil til ifodasidir.

Xotira matnining sintaksisi ana shu ikki subyekt orasida o‘ziga xos “mehnat taqsimoti” ustiga qurilgan: voqea va fon konstruksiyalari asosan tajriba payti “men”ga, baho va metanarrativ konstruksiyalar esa hozirgi “men”ga tegishli. Bu Janettning narrating I va experiencing I ajratimini [2] grammatik dalil bilan to‘ldiradi.

Natijalar Xopperning birinchi reja–fon nazariyasi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri mos keladi: voqea zanjiri figura, fon konstruksiyalari esa fon vazifasini bajarishi zamon-aspekt taqsimotida aniq aks etdi [6; 7]. Bu o‘tmish tajribani tartibga solish operatsiyasi sintaktik tanlovlarda iz qoldirishini ko‘rsatadi. Shuningdek, baho qatlamining alohida sintaktik vositalar (modal va kirish so‘zlar) orqali ifodalanishi Labovning baholash komponenti haqidagi qarashlarini [5] aniqlashtiradi.

Pragmatik jihatdan, baho va metanarrativ konstruksiyalarning bayonning chegaraviy qismlarida jamlanishi deyktik markazning hozirgi paytga qaytishi bilan izohlanadi [9; 10]. So‘lovchi bayonni boshlash va yakunlashda o‘z hozirgi koordinatalariga qaytadi, bayon o‘rtasida esa o‘tmish koordinatalariga ko‘chadi. Bu “ko‘chish–qaytish” ritmi Byuler ta‘riflagan origo transpozitsiyasining [8] xotira matnidagi muntazam ko‘rinishidir.

Raqamli muhitdagi xotira matnlari an‘anaviy memuardan ayrim belgilari bilan farq qildi: ularda metanarrativ va murojaat konstruksiyalari ko‘proq uchradi, bu raqamli bayonning kuchli muloqotga yo‘naltirilganligi bilan bog‘liq [4; 11]. Bu kuzatuv autonarrativ sintaksisning janr va muhitga sezgir ekanligini ko‘rsatadi.

Amaliy ahamiyat jihatidan, taklif etilgan tasnif til o‘qitishda bayon ko‘nikmalarini rivojlantirishda, matn tahririda perspektiva barqarorligini baholashda va raqamli filologiyada konstruksiyalarni avtomatik belgilashda dastlabki sxema sifatida qo‘llanishi mumkin.

Tadqiqotning nazariy hissasi shundaki, u to‘ rt mustaqil an‘anani — narratologiya [2], diskurs sintaksisi [6], og‘zaki narrativ tahlili [1] va deyksis pragmatikasi [9] — yagona sintaktik tahlil doirasida birlashtiradi. Autonarrativ sintaksis tushunchasi ana shu an‘analar orasida ko‘prik vazifasini bajaradi: u bayon strukturasini grammatik shaklga, grammatik shaklni esa kommunikativ vazifaga bog‘laydi. Shu ma‘noda mazkur ish Fludernik taklif etgan tajribaviylikka asoslangan bayon tushunchasini [12] aniq grammatik kategoriyalar bilan to‘ldiradi.

Tadqiqotning cheklovlarini ham qayd etish lozim. Birinchidan, tahlil sifat yo‘nalishida olib borilgani uchun aniqlangan tendensiyalar kengroq miqdoriy korpusda qo‘shimcha tekshiruvni talab qiladi. Ikkinchidan, har bir janrning o‘ziga xos sintaktik xususiyatlari alohida chuqur tahlilga muhtoj. Uchinchidan, og‘zaki va yozma xotira matnlari orasidagi farqlar batafsil ajratilmadi va kelgusi tadqiqot mavzusi bo‘lib qoladi.

XULOSA

Mazkur tadqiqotda birinchi shaxs xotira matnlarining sintaktik tashkiloti autonarrativ sintaksis tushunchasi doirasida o‘rganildi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, bunday matnlarda sintaktik tanlovlar bayon qilayotgan va bayon qilinayotgan “men” orasidagi munosabat bilan izchil belgilanadi va beshta asosiy konstruksiya guruhida — voqea zanjiri, fon, baho va sharh, ichki nutq, hamda metanarrativ konstruksiyalarda — namoyon bo‘ladi.

Asosiy ilmiy xulosa shundan iboratki, zamon shakllarining almashinuvi xotira matnida bezak emas, balki ikki subyektni ajratuvchi tizimli sintaktik mexanizmdir. Bu xulosa Janettning bayon ovozi [2], Xopperning birinchi reja–fon [6], Labovning baholash [5] va Fillmorning deyktik markaz [9] nazariyalarini yagona sintaktik tahlilda birlashtiradi. Shu tariqa narratologik perspektiva grammatik dalil bilan bog‘lanadi.

Kelgusi tadqiqotlar aniqlangan tipologiyani kengroq miqdoriy korpusda tekshirish, og‘zaki va yozma hamda an‘anaviy va raqamli xotira janrlarini qiyoslash, autonarrativ sintaksisni boshqa tillar materiali bilan tipologik solishtirish yo‘nalishlarida davom ettirilishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Labov, W., & Waletzky, J. (1967). Narrative analysis: Oral versions of personal experience. In J. Helm (Ed.), *Essays on the verbal and visual arts* (pp. 12–44). Seattle: University of Washington Press.

2. Genette, G. (1980). *Narrative discourse: An essay in method* (J. E. Lewin, Trans.). Ithaca, NY: Cornell University Press.

3. Oatley, K., & Djikic, M. (2008). Writing as thinking. *Review of General Psychology, 12*(1), 9–27.

4. Page, R. (2018). *Narratives online: Shared stories in social media*. Cambridge: Cambridge University Press.

5. Labov, W. (1972). The transformation of experience in narrative syntax. In *Language in the inner city: Studies in the Black English vernacular* (pp. 354–396). Philadelphia: University of Pennsylvania Press.

6. Hopper, P. J. (1979). Aspect and foregrounding in discourse. In T. Givón (Ed.), *Discourse and syntax (Syntax and Semantics, Vol. 12)* (pp. 213–241). New York: Academic Press.

7. Hopper, P. J., & Thompson, S. A. (1980). Transitivity in grammar and discourse. *Language, 56*(2), 251–299.

8. Bühler, K. (1934). *Sprachtheorie: Die Darstellungsfunktion der Sprache*. Jena: Gustav Fischer.

9. Fillmore, C. J. (1997). *Lectures on deixis*. Stanford, CA: CSLI Publications.

10. Levinson, S. C. (1983). *Pragmatics*. Cambridge: Cambridge University Press.

11. Ochs, E., & Capps, L. (2001). *Living narrative: Creating lives in everyday storytelling*. Cambridge, MA: Harvard University Press.

12. Fludernik, M. (1996). *Towards a ‘natural’ narratology*. London: Routledge.